



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУЗ

АКТА NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

**JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2026
9**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik (O'zbekiston)

Suleymanov R.X. – t.f.d., prof. (O'zbekiston)

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof. (O'zbekiston)

Musayev N.U. – t.f.d., prof. (O'zbekiston)

Urakov D.J. – t.f.d., prof. (O'zbekiston)

Xolikulov A.B. – t.f.d., prof. (O'zbekiston)

Zuyev A.S. – t.f.d., prof. (Rossiya)

Jesus Gil Fuensanta. – t.f.d., prof. (Ispaniya)

K.Yildirim. – t.f.d., prof. (Turkiya)

Muxamedova D.G. – psix.f.d., prof. (O'zbekiston)

Safayev N.S. – psix.f.d., prof. (O'zbekiston)

Rasulov A.I. – psix.f.d., prof. (O'zbekiston)

Tashimova F.S. – psix.f.d., prof. (Qozog'iston)

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof. (O'zbekiston)

Nishanova O.Dj. – f.f.d., prof. (O'zbekiston)

To'xtayev X.P. – f.f.d., prof. (O'zbekiston)

Sobirova U.F. – sots.f.d., prof. (O'zbekiston)

Xudaykulov H.J. – ped.fan.d., prof. (O'zbekiston)

Miroslav Ballay – PhD, prof. (Slovakiya)

Shirinoва R.X. – fil.f.d., professor. (O'zbekiston)

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof. (O'zbekiston)

Sadullayeva N.A. – fil.f.d., prof. (O'zbekiston)

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., prof. (O'zbekiston)

Markov A.V. – fil.f.d., prof. (Rossiya)

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof. (O'zbekiston)

Abdurahmonova N.Z. – fil.f.d., prof. (O'zbekiston)

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., dots. (O'zbekiston)

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2026

MUNDARIJA

Tarix

Abdivoxidova G. Mustaqillik yillarida ayollar tadbirkorligining ijtimoiy-etnologik jihatlari (Denov tumani misolida).....	4
Inayotov J. Sovet davrida fotografiyaning ommalashuvi va fotosuratlar faoliyati	8
Матбабаев Б., Рахимов К., Хошимов Х. Новые материалы по раннежелезному веку Ферганы	11
Matyakubov N. Toshkent metropoliteni faoliyati tarixshunosligiga doir tahlillar	15
Raimov A. Qorabayir ot zotining tarixiy-genetik shakllanishi va tizimli seleksiyasi tarixi	18
Safarov Y. Ma'rifatparvar Said Rizo Alizoda publitsistik merosida xalqaro munosabatlar masalalarining tarixiy-siyosiy tahlili	21
Tojiyev Sh. Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng qadimgi migrasion jarayonlar tarixidan	24
Ulug'bekov O. Educational migration: the key reasons of flowing from home to foreign universities	27
Xojitqulov N. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi islohotlar	30
Xusanova Sh. Marhamatliklarning ikkinchi jahon urushiga qo'shgan hissasi (urush ishtirokchisi Iminjon Temirov bilan suhbat materiallari asosida)	33

Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik

Abdug'afurova I. Talabalarni vizual dasturlash muhitida ishlash kompetensiyalarini shakllantirish	36
Abdullayev A., Yo'ldosheva D. Muhandislik ta'limida virtual simulyatsiya tizimlarining ergonomik va pedagogik samaradorligi	40
Abdullaeva G., Xamiyeva M. Ta'limda zamonaviy trendlar va innovatsion yondashuvlarning pedagogik ahamiyati	43
Abdullayeva D. Huquqiy lug'atlar orqali talabalarda kasbiy leksik ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi	46
Abdullayeva Z. Virtual reallik va sun'iy intellekt muhitida inson axloqining o'zgarish xususiyatlari	49
Abdurasulov J. Xalqaro tashkilotlar doirasida O'zbekiston va Afg'oniston munosabatlari	52
Alimova G. Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari.....	56
Ахмедова Ш. Экологическая политика и государственное управление в условиях глобальных трансформаций	59
Axmadjanov O. Milliy maktablarda rus tili fanidan o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni	62
Бабаева А. Институциональные механизмы реализации эффективной социально-экономической политики государства.....	65
Begimqulov Z. Ta'lim tizimida jadidchilik harakatini o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	68
Bekchanov X., Yoqubova Sh. Virtual muhitning shaxsga ta'siri va uning psixologik xususiyatlari	71
Boyxonov U. Jamiyat va ichki ishlar organlari o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma falsafasi	74
Bo'ronov S., Ergasheva N. Xalqaro munosabatlarda ayol diplomatlarning o'rni va roli	77
Gaziyev Z. Islomiy qadriyatlarda gumanistik g'oyalari rivoji	81
Dursunov S. Urologik va jinsiy buzilishlar bilan og'rigan nikohdagi erkaklarning psixologik profillari-tadqiqot obyekti sifatida.....	84
Jalolova M. Harbiy oilalar munosabatlarida emosional muvozanatni tiklash: psixologik xizmat ko'rsatish modelining afzalliklari	87
Jonikulov A. Kognitiv-pragmatik yondashuvning tarjima ta'limidagi metodologik o'rni	90
Jumaniyozova N. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ta'lim tizimida ijtimoiy yangilanish jarayonlari.....	93
Zohidov S. Masofaviy ta'lim muhitida shaxs xususiyatlarining namoyon bo'lish omillari	96
Ibodova M. O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga oid o'quv topshiriqlarining turlari va tavsiflari	99
Ikromova M. Improving the methodology of developing professional communicative competence using the CLIL approach in english lessons (on the example of it students).....	102
Islikov S. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning innovatsion metodlari	105
Ishmuradova G., Mirzayeva G. Texnologik ta'limda modulli yondashuv tushunchasi va "Do'ppichilik san'ati modulini o'qitish metodikasi.....	108
Karimova M. Ayollar ijtimoiy xususiyatlarining o'ziga xos tamoyillari	111
Касьмова Н. Цифровая трансформация народной дипломатии: философские основания и практические аспекты	114
Kushieva N. A modern mechanism of teaching english language in the higher educational system	117
Qadirova D. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyalar shakllanganlik holatining amaliy tahlili ...	120
Madaminova N. Ingliz tilini o'qitish vositasi sifatida monologlardan sun'iy intellekt orqali foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	123
Mamatov M. Uchinchi Renessans – ma'naviy taraqqiyot poydevori	126
Марифли А. Международный терроризм как угроза политической стабильности и устойчивому развитию государств	129
Matyakubov M., Muxammadiyev F. Raqamli ta'lim muhitida talabalarining kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirishda interaktiv metodlar va psixologik omillar.....	132
Mamurov E., Abdullayev A. Cognitive pedagogical approaches to statistical stability with random sample sizes	135
Melikulov F. Ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy metodologik asoslari.....	138
Miliyeva M. Bilingval ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modeli	141
Mirzayeva K. Ixtisoslik va umumta'lim modullarini integrativ o'qitishning milliy va xorijiy tajribalar tahlili	144
Mirzaeva U. Inkluziv ta'lim sharoitida koxlear implantli o'quvchilarning nutqiy reabilitatsiyasida sun'iy intellektning o'rni	147
Murodova Sh. Ona tili darslarida matn ustida ishlash orqali o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi	150
Najimova M. Inkulziv ta'limda koxlear implantli bolalarning nutqiy kompetensiyalarini masofaviy va raqamli vositalar orqali rivojlantirish.....	153
Naimjonova Z. O'zbekiston-AQSH migratsiya muloqoti: yangi imkoniyatlar va strategik yondashuvlar	156
Насруллаев Р. Взаимосвязь национальной идентичности и патриотизма в мировоззрении молодежи	159
Norqulov Sh. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy reklama fenomeni: maqsadli tasnif, vositalar va samaradorlik me'zonlari	162
Nuradin G., Kulbayeva D., Akkuliyeva A., Tulyayev A. Universitetda falsafa fanining maqomi va uning talabaning fikrlash madaniyatini shakllantirishdagi o'rni.....	165
Oqbo'tayev A. Ekoturizm asosida shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-ma'naviy modellari.....	169
Pulotov A. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning o'rni	173
Rajabov O. O'zbek imo-ishora tili uchun dastlabki ma'lumotlar bazasini shakllantirish va sun'iy intellekt asosida tanib olish modelini ishlab chiqish	176
Разуваева И., Дачев О. Разработка цифровых решений, направленных на повышение уровня тактической подготовки игроков студенческого футбола	179
Raufova M. Ingliz tilini o'qitishda kasb-hunar texnikumi o'quvchilarning og'zaki muloqot ko'nikmalarini Keys texnologiyasi yordamida rivojlantirish metodikasi.....	182
Rahmatov N. Global ekologik muammolarning qishloq xo'jaligi sohasi va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri.....	186
Ro'zibayeva N. The role of needs analysis in the development and interpretation of gamified content for legal english learning	189
Rustamova M. Ishsiz fuqarolarni kasbiy qayta tayyorlashda andragogik yondashuvning samaradorligi	192
Sadikova Sh. Universitet ta'limida talabalarni amaliy pedagogik faoliyatga tayyorlash.....	196



UO'K: 159.923.3-942.22:616.89-008.44

Sardor DURSUNOV,
O'qituvchi, Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: sardordursunov93@outlook.com

ToshDavTU dotsenti, psixol.f.d. N.A. Askarova taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL PROFILES OF MARRIED MEN WITH UROLOGICAL AND SEXUAL DISORDERS AS AN OBJECT OF RESEARCH

Annotation

This scientific article presents, for the first time, a scientific and statistical analysis of the psychological profiles of married men with urological and sexual disorders. The obtained results were investigated and interpreted from clinical psychological and sexological perspectives.

Keywords: Urological diseases, sexual disorders, anxiety, depression.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОФИЛИ МУЖЧИН, СОСТОЯЩИХ В БРАКЕ, С УРОЛОГИЧЕСКИМИ И СЕКСУАЛЬНЫМИ РАССТРОЙСТВАМИ КАК ОБЪЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация

В данной научной статье исследованы психологические профили мужчин, состоящих в браке и имеющих урологические и сексуальные расстройства, на основе научно-статистического анализа, а также проведена клинико-психологическая и сексологическая интерпретация полученных результатов.

Ключевые слова: Урологические болезни, сексуальные расстройства, тревожность, депрессия

UROLOGIK VA JINSIY BUZILISHLAR BILAN OG'RIGAN NIKOHDAGI ERKAKLARNING PSIXOLOGIK PROFILLARI-TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada urologik va jinsiy buzilishlarga ega nikohdagi erkaklarni ilk bor psixologik profillarli ilmiy -statistik jihatdan tahlil qilinib, natijalarni klinik psixologik va seksologik interpretatsioni tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Urologik kasalliklar, jinsiy buzilishlar, xavotir, depressiya

Kirish. Bugungi kunda urologik va jinsiy buzilishlar erkaklar reproduktiv salomatligining eng muhim klinik va psixologik muammolaridan biri sifatida baholanmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, reproduktiv salomatlik bilan bog'liq buzilishlar insonning nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ijtimoiy farovonligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, nikohdagi erkaklarda uchraydigan surunkali prostatit, erektil disfunktsiya, jinsiy qoniqmaslik va boshqa urologik buzilishlar ko'pincha xavotir, depressiya, emotsional tanglik, oilaviy nizolar hamda ijtimoiy moslashuvning pasayishi bilan kechadi. Shu sababli mazkur muammolarni biopsixosotsial yondashuv asosida o'rganish zamonaviy klinik psixologiya, tibbiy psixologiya va seksologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy tadqiqotlarda surunkali urologik kasalliklar bilan og'rigan erkaklarda psixoemotsional buzilishlar darajasi sog'lom respondentlarga nisbatan ancha yuqori ekanligi qayd etilgan. Xususan, World Health Organization tomonidan reproduktiv salomatlik inson hayot sifatini va psixologik barqarorligining muhim komponenti sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, American Urological Association tavsiyalarida erektil disfunktsiya va surunkali tos og'riq sindromi bilan kechuvchi prostatit holatlarida psixologik omillar diagnostika hamda davolash jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqilishi ta'kidlangan.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, surunkali prostatit va jinsiy disfunktsiyalar erkaklarda depressiv simptomatika, nevrotik reaksiyalar hamda o'z-o'zini baholashning pasayishiga olib kelishi mumkin (Keltikangas-Järvinen, 2019; Nickel et al., 2020). Bundan tashqari, nikohdagi erkaklarda

jinsiy buzilishlarning oilaviy munosabatlar va er-xotin kommunikatsiyasiga salbiy ta'siri mavjudligi ilmiy jihatdan asoslangan (McCabe et al., 2016). Shu nuqtai nazardan, urologik va jinsiy buzilishlar bilan og'rigan nikohdagi erkaklarning psixologik profillarini aniqlash ularning individual-emotsional xususiyatlari, stressga chidamliligi, interpersonal munosabatlari hamda oilaviy moslashuv mexanizmlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.


Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, urologik va jinsiy buzilishlarning psixologik komponentlarini kompleks tahlil qilish orqali klinik-psixologik diagnostika, psixoprofilaktika va psixokorreksiya tizimini takomillashtirishga ilmiy asos yaratiladi. Tadqiqot natijalari esa klinik psixologlar, urologlar va seksologlar uchun bemorlarning psixoemotsional holatini baholash hamda individual psixoterapevtik yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot erkaklarda uchraydigan urologik va jinsiy buzilishlarning nikohli va nikohsiz (jinsiy sherikli) erkaklar psixoemotsional hamda seksopsixologik profiliga ta'sirini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot bio-psixo-sotsial yondashuv tamoyillari asosida tashkil etildi. Tadqiqot davomida klinik-psixologik, psixodiagnostik va statistik metodlar kompleks qo'llanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, "Insight" psixologik yordam markazi (Toshkent shahri) hamda Buxoro viloyat tibbiyot birlashmasiga murojaat qilgan 20-45 yosh oralig'idagi nikohdagi va jinsiy sheriklik munosabatida bo'lgan erkaklar

tanlab olindi. Tadqiqotda jami 220 nafar respondent ishtirok etdi. Shundan asosiy erkak respondentlar soni 110 nafarni tashkil etib, ular orasida erektil disfunktsiya (ED), surunkali prostatit, varikotsele hamda siydik-tosh kasalligi (STK) tashxisi bilan murojaat qilgan bemorlar tashkil etgan. Tadqiqotga jalb etilgan erkak respondentlarning 81,8 foizi rasmiy nikohda, 7,3 foizi shar'iy nikohda va 10,9 foizi nikohsiz sheriklik munosabatida bo'lgan. Respondentlarda psixoemotsional holatlarni baholash uchun "HADS" (Hospital Anxiety and Depression Scale) metodikasi orqali xavotir va depressiya darajalari aniqlashtirildi. Respondentlarning frustratsion holatini baholashda V.V.Boyko metodikasidan foydalanildi. Shaxs xarakter aksentuatsiyalarini aniqlash maqsadida "Shmishek" testi tatbiq etildi. Oilaviy va sheriklik


munosabatlarini baholash uchun V.V.Stolin, T.L.Romanova va G.P.Butenko tomonidan ishlab chiqilgan "Oilaviy hayotdan qoniqish testi" hamda "Munosabatlarni differensial baholash" (MDB) metodikasi qo'llanildi. Eraklarda erektil funksional holatni aniqlash maqsadida esa xalqaro "MIEF-5" (International Index of Erectile Function-5) metodikasi ishlatildi. Mualliflik "Blits-so'rovnomasi" natijalariga ko'ra, respondentlarda dastlabki somatik bezovtalik urologik kasallik bilan bog'liq bo'lsa-da, keyingi bosqichlarda jinsiy faoliyat va sheriklik munosabatlariga oid xavotirlarning ustunligi kuzatildi. Ayniqsa, jinsiy hayot sifati va sherik bilan emotsional yaqinlikka doir savollarda o'rta va yuqori darajadagi bezovtalik ko'rsatkichlari qayd etildi (1-rasm).



1-rasm. Blits so'rovnomasi natijalari tasnifi (%) 2-rasm. HADS-xavotir va depressiya natijalari (n=110)

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot metodologiyasida bemorlarning klinik va psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida anamnestik suhbat, kuzatuv va mualliflik "Blits-so'rovnomasi" si qo'llanildi. Ushbu so'rovnomasi bemorlarning somatik bezovtaligi, jinsiy hayotga oid xavotirlari hamda sheriklik munosabatlariga nisbatan emotsional munosabatini aniqlashga xizmat qildi (1-rasm). "HADS" metodikasi natijalariga ko'ra, 42 nafar respondentda yengil xavotir, 50

nafarida subklinik xavotir, 18 nafarida esa klinik xavotir holati kuzatildi. Depressiya ko'rsatkichlari bo'yicha esa 36 nafar respondentda yengil depressiya, 64 nafarida subklinik depressiya va 10 nafarida klinik depressiya aniqlangan. Olingan natijalar urologik va jinsiy buzilishlar nafaqat somatik diskomfort, balki oilaviy va sheriklik munosabatlariga bog'liq emotsional zo'riqishlar bilan ham aloqador ekanligini ko'rsatdi (2-rasm).



3-rasm. Respondentlarning aksentuatsiya ko'rsatkichi 4-rasm. Mief-5 so'rovnomasi natijasi (n=110)

Tadqiqot natijalarining statistik tahlili parametrik va noparametrik metodlar asosida amalga oshirildi. Guruhlararo tafovutlarni aniqlash uchun Kruskal-Uollis testi, korrelyatsion bog'liqliklarni aniqlash uchun Spearman korrelyatsion tahlili,

korreksion dastur samaradorligini baholash uchun Styudent t-mezoni hamda Wilcoxon testi qo'llanildi. Statistik ishonchlilik darajasi p<0,05 va p<0,01 mezonlari asosida baholandi (1-jadval).

1- jadval

HADS-xavotir shkalasining boshqa natijalar bilan o'zaro bog'liqligi

Ko'rsatkichlar	depressiya	frustratsiya	Mief-5	Sikloid	ekzaltiv	xavotirli	MDB_ijobiy
Hads- xavotir shkalasi	,378(**)	,314(**)	-368(**)	,291(**)	,258(**)	,542(**)	-,231(*)

Izoh: * - p<0,05, ** - p<0,01

Korrelyatsion tahlil natijalarida HADS-xavotir shkalasi bilan depressiya (r=0,378; p<0,01) va frustratsiya (r=0,314; p<0,01) o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlangan. MIEF-5 natijalari bilan esa teskari bog'liqlik kuzatildi (r=-0,368; p<0,01), ya'ni xavotir

darajasi oshgan sari erektil funksional holat pasayishi aniqlandi. Shuningdek, xavotir darajasining xavotirli, ekzaltiv va sikloid tipdagi xarakter aksentuatsiyalari bilan bog'liqligi qayd etildi.

2-jadval

Eraklardagi urologik va jinsiy buzilish tashxisiga ko'ra tadqiqot natijalarining tafovut ko'rsatkichi

Ko'rsatkich	Varikotsele (n=28)	ED (n=44)	Prostatit (n=26)	STK (n=12)	H (df=3)	P
Yosh	65.67	65.88	60.36	33.86	17.98	0.001***
Blits so'rovnomasi	52.00	48.12	71.27	39.07	20.34	0.001***
Depressiya	78.00	45.81	63.82	41.79	17.27	0.001**
MIEF-5	47.50	74.65	39.45	66.36	24.75	0.001***
Hayajonlanuvchi tip	35.00	47.27	66.23	55.07	12.64	0.005**
Demonstrativ tip	68.50	66.96	43.86	57.5	11.63	0.009**

MDB – ijobiy	36.50	61.19	44.45	75.71	21.66	0.001***
--------------	-------	-------	-------	-------	-------	----------

Izoh: * $p < 0.05$, ** $p < 0.01$, *** $p < 0.001$

“Shmishkek” metodikasi natijalariga ko‘ra, respondentlarda gipertim, distim, siklotim hamda emotsional labil tipdagi xarakter aksentuatsiyalari ustunlik qilgani aniqlandi. Prostatit tashxisli bemorlarda hayajonlanuvchi tip va depressiv emotsional fon ustunligi kuzatilgan bo‘lsa, varikotsele bilan og‘rigan bemorlarda demonstrativ tip va depressiv holatlar ko‘proq namoyon bo‘ldi. Erektillik disfunktsiya guruhida esa demonstrativ xarakter aksentuatsiyasi hamda sheriklik munosabatlarini ijobiy baholash tendensiyasi qayd etildi. “MIEF-5” metodikasi natijalariga ko‘ra, respondentlarning 84 foizida erektil funksional buzilish turli darajada mavjudligi aniqlandi. Bu holat jinsiy funksional buzilishlarning nafaqat organik, balki psixogen omillar bilan ham bog‘liqligini tasdiqlaydi. Kruskal–Uollis testi natijalari, barcha diagnostik guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi ($p < 0,01$). Prostatit tashxisli bemorlarda depressiya va xavotir ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan bo‘lsa, erektil disfunktsiya guruhida munosabatlarini nisbatan ijobiy baholash kuzatildi. STK guruhida esa yosh omili va psixogen komponentlarning ustunligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari urologik va jinsiy buzilishlarga ega erkaklarda psixoemotsional holat, shaxs aksentuatsiyasi hamda sheriklik munosabatlari o‘rtasida murakkab klinik-psixologik bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar biopsixosotsial konsepsiya nuqtai nazaridan talqin qilganda, jinsiy va urologik buzilishlar faqat somatik yoki fiziologik jarayon sifatida emas, balki shaxsning emotsional, kognitiv va interpersonal tizimi bilan uzviy bog‘liq kompleks holat sifatida namoyon bo‘lishi aniqlanadi. Prostatit tashxisli respondentlarda hayajonlanuvchi xarakter aksentuatsiyasi, yuqori xavotir va depressiv fonning aniqlanishi ushbu kasallikning surunkali og‘riq sindromi, vegetativ bezovtalik hamda somatik sensitizatsiya bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Klinik jihatdan surunkali prostatit organizmda doimiy diskomfort va nazoratni yo‘qotish hissini shakllantiradi. Psixologik nuqtai nazardan esa, bunday bemorlarda kasallik haqida giperkuzatuvchanlik, somatik simptomlarga ortiqcha e‘tibor qarotish va katastrofik tafakkur rivojlanishi kuzatiladi. Shu sababli ularda xavotir va frustratsiya ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishi tabiiy holat sifatida namoyon bo‘ladi.

Varikotsele tashxisli bemorlarda demonstrativ xarakter aksentuatsiyasi va depressiv holatlarning ustunligi erkaklik identifikatsiyasi hamda reproduktiv salomatlik bilan bog‘liq ichki psixologik ziddiyatlarni aks ettiradi. Mazkur guruhdagi bemorlar tashqi ijtimoiy imidj va jinsiy kompetentlikni muhim qadriyat sifatida qabul qilgani sababli, reproduktiv xavotirlar ularning o‘z-o‘zini baholash tizimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Natijada emotsional kompensatsiya sifatida demonstrativ xulq-atvor shakllanishi mumkin.

Erektillik disfunktsiya tashxisli respondentlarda demonstrativ tip hamda munosabatlarini nisbatan ijobiy baholash tendensiyasi aniqlangan bo‘lsa-da, MIEF-5 natijalari bilan xavotir ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik jinsiy muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvi va performans xavotirining ustunligini ko‘rsatadi. Klinik seksologik nuqtai nazardan psixogen erektil disfunktsiya ko‘pincha jinsiy muvaffaqiyatsizlikni kutish, sherik tomonidan baholanishdan qo‘rqish va o‘z erkaklik rolga nisbatan ichki ishonchsizlik bilan bog‘liq bo‘ladi. Tadqiqot natijalari aynan ushbu guruhda psixoterapevtik va psixoseksual yondashuvning ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Siydik-tosh kasalligi bilan og‘rigan respondentlarda esa yosh omilining nisbatan pastligi va munosabatlarini ijobiy baholash ko‘rsatkichlari psixogen komponentlarning ustunligini ko‘rsatadi. Mazkur guruhdagi bemorlarda somatik simptomlar bilan bir qatorda stressga javob reaksiyasi sifatida emotsional zo‘riqish va psixosomatik javob mexanizmlari shakllanganligini kuzatish mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlangan korrelyatsion bog‘liqliklar xavotir, depressiya, frustratsiya va erektil funksional holat bir-biri bilan uzviy bog‘langan yagona psixoemotsional tizim ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xavotir ortishi bilan erektil funksionaning pasayishi psixogen mexanizmlarning ustunligini dalillaydi. Bu esa zamonaviy klinik psixologiya va seksologiyada jinsiy buzilishlarni davolashda integrativ biopsixosotsial modelning ustuvor ahamiyat kasb etishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari urologik va jinsiy buzilishlarga ega nikohdagi erkaklarda psixoemotsional holat, shaxs aksentuatsiyasi hamda sheriklik munosabatlari o‘rtasida muhim klinik-psixologik bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar biopsixosotsial yondashuvning dolzarbligini ko‘rsatib, jinsiy va urologik buzilishlarni diagnostika hamda davolash jarayonida klinik psixologik va seksologik yondashuvlarni integratsiya qilish zarurligini asoslaydi. Ayniqsa, xavotir va depressiv holatlarning erektil funksional buzilishlar bilan bog‘liqligi psixogen omillarning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shu sababli bemorlarni kompleks baholash, psixodiagnostika, psixokorreksiya va psixoterapevtik yordamni davolash tizimiga kiritish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari urologik va jinsiy buzilishlarga ega bemorlarning psixologik profilarni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi hamda kelgusida biopsixosotsial model asosida individual psixokorreksion va psixoterapevtik dasturlar ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. (2022). Sexual and reproductive health.
2. McCabe, M. P., et al. (2016). Psychological and interpersonal dimensions of sexual function and dysfunction. *The Journal of Sexual Medicine*, 13(3), 327–336.
3. American Urological Association Clinical Guidelines on Erectile Dysfunction and Chronic Pelvic Pain Syndrome.
4. Дурсунов С.А. (2025). Урологик бузилишларни оилали эркаклар психоэмоционал сферасига таъсири ва унинг психодиагностикаси. *Журнал гуманитарных и естественных наук*, 1(22 [2]), 85–87.
5. Axmat o‘g‘li D. S., & Sevinch A. Bemorlarda nevroitik holatlar tahlili. *Научный импульс*, 445.
6. Sardor D. (2025). The Role of Partner Relationships in The Etiology of Psychogenic-Type Sexual Disorders in Men. *Nvpubhouse Library for International Journal of Medical Sciences And Clinical Research*, 5(06), 16–19.
7. Sophie Bergeron, Myriam Pâquet Perceived partner responsiveness is associated with sexual well-being in couples with genito-pelvic pain 628-638. doi: 10.1037/fam0000829. *Epub* 2021 Mar 18
8. Кратохвил С. Психотерапия семейно-сексуальных дисгармоний: Пер.с чешск.-М.: Медицина, 1991